

YO'L HARAKATI QOIDALARI — XAVFSIZ HAYOT KAFOLATI

Rasulov Abrorjon Iskandar o'g'li
Alijonov Abdusattor G'anijon o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yo'l harakati xavfsizligi tushunchasi, uning huquqiy-me'yoriy asoslari, ijtimoiy ahamiyati hamda zamonaviy boshqaruv tizimlaridagi o'rni tahlil qilingan. Yo'l harakatida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning javobgarligi, texnologik yondashuvlar va xavfsizlikni oshirish omillari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *yo'l harakati xavfsizligi, transport tizimi, avtotransport, huquqiy-me'yoriy asoslar, intellektual transport tizimlari, xavfsizlik madaniyati.*

KIRISH

Har kuni millionlab odamlar avtomobil, avtobus, velosiped yoki piyoda sifatida yo'llardan foydalanadi. Yo'l harakati jarayonida xavfsizlikni ta'minlash uchun har bir fuqaro yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qilishi zarur. Chunki yo'l harakati qoidalarini bilish va ularga rioya etish inson hayoti, sog'ligi hamda mol-mulkini himoya qilishning eng muhim omillaridan biridir.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun va unga asoslangan Yo'l harakati qoidalar (YHQ) bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalar barcha yo'l harakati ishtirokchilarining — haydovchilar, piyodalar, yo'lovchilar va transport egalari huquq va majburiyatlarini belgilab beradi[1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-dekabrda "Xavfsiz shahar" yagona apparat-dasturini yaratish bo'yicha loyihasini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi komissiya yig'ilishining 1-son bayoni va Oliy ta'lim vazirligining loyiha bo'yicha 2018-yil 16-yanvardagi 39-son buyrug'i ijrosini ta'minlash bo'yicha barcha OTMlarda "Xavfsiz shahar" doirasida harakat xavfsizligini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.. Mazkur tadbirlar harakat xavfsizligini ta'minlashni intellektual tizimlari bilan hamohanglikda ishlab chiqilgan [2,3,4].

Yo'l harakati qoidalarining asosiy talablari:

1. Transport vositasini faqat tegishli hujjatlar (haydovchilik guvohnomasi, texnik pasport) bo'lgan shaxs boshqarishi mumkin.
2. Haydovchi avtomobilni boshqarishdan avval texnik sozligini tekshirishi shart.
3. Harakat davomida xavfsizlik kamarini taqish majburiy.
4. Yo'l belgilariga, svetofor signallariga va tartib belgilovchi xodimlar ko'rsatmalariga rioya qilish lozim.
5. Piyodalar faqat piyodalar o'tish joyidan (zebra chizig'i) o'tishlari kerak.
6. Transport vositalari tezlikni yo'l sharoitiga mos ravishda tanlashi lozim.

7. Ichki shahar va tashqi yo'llarda harakatlanayotganda masofa saqlash, oraliq va yon masofaga e'tibor berish zarur.

YHQ buzilishining oqibatlar

Qoidalariga amal qilmaslik yo'l-transport hodisalariga sabab bo'ladi. Bu esa inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazadi, moddiy zarar keltiradi hamda jinoiy javobgarlikka olib keladi. Shu sababli har bir haydovchi va piyoda o'z javobgarligini chuqur his etishi kerak [5].

Ta'lim muassasalarida yo'l harakati madaniyatini shakllantirish

Texnikumlarda, ayniqsa transport yo'nalishidagi o'quv yurtlarida o'quvchilarga yo'l harakati madaniyatini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg'ulotlarda yo'l belgilarini o'rganish, haydovchilik madaniyati, svetoforlar ishlash tizimi, avariya holatlaridagi to'g'ri harakat kabi mavzular o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi[5].

XULOSA

Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish — bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki insoniy burchdir. "Xavfsizlik – har bir insonning hayot tarzi bo'lishi kerak" degan tamoyilga amal qilish orqali biz o'zimiz va boshqalar hayotini asraymiz. Shunday ekan, har bir fuqaro, ayniqsa yoshlar yo'l harakati qoidalarini chuqur o'rganib, ularni amalda qo'llashni o'z hayotiy odatiga aylantirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'l-transport hodisalarini tahlili: o'quv qo'llanma/ G'.A.Samatov, M.N.Usmanova.- Toshkent:TAYLQEI, 2019.- 111 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 dekabrda va Oliy ta'lim vazirligining loyiha bo'yicha 2018 yil 16 yanvardagi 39-son buyrug'i.
3. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 377-son "O'zbekiston Respublikasi yo'l havfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda PQ-4063-son "Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
5. <https://yhxx.uz/oz/news/avtomobil-yollarida-inson-xavfsizligini-ishonchli-taminlashva-olim-holatlarini-keskin-kamaytirish-chora-tadbirlari-togrisida>